

## O'QUVCHILARDA POZITIVLIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

*Irismetova Dilafruz Anvarovna*
*Toshkent viloyati Ohangaron tumani MMTBga qarashli 33-maktabi psixologi*

**ANNOTATSIYA:** Bu maqolada pozitiv insonlarga xos bo'lgan ijobiy sifatlar haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib pozitiv insonlarga xos bo'lgan bir nechta ijobiy xususiyatlar haqida yoritilgan. Shaxsga xos bo'lgan pozitiv xususiyatlar psixologiyaning yangi tarmog'i hisoblangan ijobiy psixologiyaning baxs mavzusi ekanligi izohlanib, maktabgacha yoshdagi bolalardagi pozitivlik sifatlarining shakllanishi va uning pedagogik imkoniyatlari haqida keng mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ijobiy psixologiya, muloqot, pozitiv, tasodif, kutish, xushkayfiyat, motivatsiya, shaxsiyat, gumanistik psixologiya.

### **KIRISH.**

Pozitiv so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib «musbat, ijobiy» ma'nolarini anglatadi. Bu tushunchaga berilgan ta'riflardagi fikrlarni umumlashtirgan holda pozitivlik inson his-tuyg'ularining tashqi qiyofadagi aksi va ijtimoiy faoliyatdagi ko'rinishi deb ta'riflashimiz mumkin. Hozir pozitiv insonlarga taa'lluqli bir qancha ijobiy xususiyatlarni sanab o'tishimiz mumkin.

1.Pozitiv insonlar ongida "kutish", "tasodif", "omadga ishonish" kabi so'zlar uchramaydi. Ular hayotlarini yo`lga qo`yishda faol harakat qilishadi. Ular tinim bilmay, mehnat qiladilar, qiyin lahzalarda o`zini yaxshi his qilishi uchun atrofni, dunyonni o`zgartirishga harakat qilishadi. Hech bekor o`tirmaydilar va tinib-tinchimaydilar.

2.Pozitiv insonlar yaxshi yashashi uchun xalaqit qilayotgan har qanday buyumdan, g`oyadan osongina voz kechadi. Aksariyat odamlar umrining oxiriga qadar, o`zlari sevgan buyumlardan, g`oyalardan voz kechmay, buning uchun kuch-quvvatlarini ayashmaydi.

3.Pozitiv insonlar yaxshi va yomon voqealar taassuroti aynan qachon, qayerda ro`y bergen bo`lsa, o`sha yerda qolishi kerak, deb hisoblaydi. Ular kundalik ish bilan band bo`lib, bugun va kelajakni yaratayotganliklari uchun ham o`tmishni hadeb xotirlashga vaqt topmaydi. O`tmishda qilgan xatolari uchun afsuslanmaydi, balki undan saboq olib, kelajakda takrorlamaslikka harakat qiladi.

4. Pozitiv insonlar o'z hayotining faqat yaxshi tomonidan ko`radi. Ularning har bir kuni qiziqarli voqealarga, yangi taassurotlarga boy bo`ladi.

5.Pozitiv insonlar o'z imkoniyatlarini to'g'ri ba'holay oladilar va imkoniyat darajasidagi ishlarni amalga oshirish uchun intilishadi. Hatto omadsizlikka uchraganlarida ham, yangi variantlarni o`ylab topadi.

6.Pozitiv insonlar o'z qo'rquviga asir bo'lmaydi. Ular har qanday sharoitda ham o'z qo'rquvlarini yengadi.

7.Pozitiv insonlarni eng baxtli inson deb bemalol aytishimiz mumkin. Ammo bunday insonlar ham hayotlarida omadsizlikka, baxtsizlikka uchraydi, dard chekadi lekin tushukunlikka tushmay, baxtsizlikdan baxt qidiradi.

8.Pozitiv insonlar o`zlarini hurmat qiladi. Boshlariga tushgan ishda hech qachon birovni ayblamaydi. Har qanday sharoitda ham boshqalardan yordam kutmaydi, balki faqat o'z kuchlariga ishonadi.



Yuqorida qayd etib o'tilgan shaxs psixologiyasidagi pozitivlik xususiyatlari psixologiya faning yangi tarmoqlaridan hisoblangan ijobiyligi psixologiyaning asosiy mavzularidan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarga quydag'i o'quv qo'llanmalar D. A. Po'latova, G. M. Ro'zmatova «G'arb falsafasi tarixi» o'quv qo'llanmasi mavjud bo'lib mazkur qo'llanmaning oltinchi bo'limida XIX-XX asrlarda G'arb falsafasi tahliliga

bag'ishlangan. Pozitivizmni vujudga kelishi va yo'nalishlari; Bo'limda pozitivizm falsafasi, uning asosiy yo'nalishlari; fan va falsafa rivojida pozitivizm g'oyalarining ahamiyati haqida atroficha va chuqr bilim, tushuncha va tasavvurlar hosil qilish; pozitivizm falsafasi bilan boshqa ta'limotlarni qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga ba'g'ishlangan.

Rustamova G., Karimova R. «Falsafa tarixi: Eng yangi davr G'arb falsafasi» nomli o'quv qo'llanma bo'lib 17 sahifadan 38 sahifagacha «Pozitivizmning vujudga kelishi va yo'nalishlari» haqida yoritilgan va Pozitivizmning shakllanishi va asosiy xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari, pozitivizmning keyingi taraqqiyoti va uning falsafa tarixidagi ahamiyati masalalari yoritilgan.

O'r ganib chiqilgan manbalardan xulosaga kelishimiz mumkinki pozitivlik xususiyatlari pozitivlikning quydagi sifatlari ko'rinishlarda bolalarda namayon bo'ladi. Bolalardagi (samimiylilik, rostgo'ylik, halollik, ishonchlilik, aniqlilik, ijobiylik, tana pozitivligi) kabi ijobiy sifatlar yoshlikdan paydo bo'lishi va saqlanib qolishi muhim hisoblanadi.

Samimiylilik eng qimmatli fazilatlarni biridir. Samimiylilik sifatining sinonimlari halollik va rostgo'ylikdir, samimiylilik - real his-tuyg'ularini namoyon qilish boshqalar so'z va amallarini haqqiyligicha yetkazishda namayon bo'ladi. Samimiylilik" so'zining ta'rifi "to'g'ri" va "ochiq" degan ma'noni anglatadi. Samimiylilik insonning holatlarida harakatlarida paydo bo'lishi mumkin. Chin dildan biror narsa qilish - maxfiy fikrlar holda, sof niyat bilan, harakat qilishda namayon bo'ladi. Har bir inson bolaligida haqiqiy ma'nodagi samimiylilikka va rostgo'ylikka to'la bo'ladi, uning tafakkurida biror narsaga da'vo yoki yolg'on bo'lmaydi, buni asrab qolish muhim hisoblanadi.

Ishonchlilik so'zi lotin tilidan olingan bo'lib (ishonish mumkin yoki loyiq) kabi ma'nolarni anglatadi. *Ishonchlilik so'zi sifatga aylanganda hurmatli va ishonchli odam ta'lqinida namayon bo'ladi.* Maktabgacha yoshdagi bolalarga ishonchga loyiq bo'lish tushunchasini singdirishda turli xil kognitiv vaziyatlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bolaning murakkab vaziyatlarda uning o'zi uchun tanlagan pozitsiyasidan ishonchga loyiq bo'lish mumkin bo'lgan holatlarini tushuntirib o'tish mumkin bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ishonchning asosi har doim halollik bo'lishi kerakligini tushuntirish muhim hisoblanadi.

Aniqlik so'zi lotin tilidan olingan bo'lib aniq, aniq narsa ma'nolarini bildiradi va sifatni bildiruvchi -tud qo'shimcha sifatida ishlataladi. Ilmda aniqlik deganda o'lchov natijalarining haqiqiy qiymat deb nomlangan mos yozuvlar qiymatiga qanchalik yaqinligi tushuniladi. Ilmiy uslubga asoslangan har qanday tadqiqot loyihasida ko'tarilgan gipotezaning to'g'riligini tasdiqlash uchun etarli miqdordagi ma'lumotlar va natijalar to'planishi kerak. Demak bolalarda aniqlik sifatini shakllantirishda bir qancha kreativ metodlardan foydalanish mumkin.

Tananing pozitivligi - bu nima? O'tgan asrning oxirida feministlar Elizabet Skott va Koni Sobchak The Body Positive hamjamiyatini tashkil qilganidan boshlab bu yo'nalishdagi ilk harakatlar paydo bo'ldi. Ularning vazifasi insonlarga o'z tanalarini qabul qilish va sevishlariga yordam berish edi. Ideal qiyofaga erishishning mumkin emasligi, tashqi ko'rinishidan norozilik rad javobini keltirib chiqarmaydi.

Tananing pozitivligi - bu belgilangan me'yirlarga rioya qilishdan qat'iy nazar, tanani go'zal deb tan olishdir.

Maktab yoshdagি bolalarga tana pozitivligi sifatini shakllantirish juda muhim sanaladi. Bolalikdan ular o'zlariga va o'z ko'rinishlariga nisbatan ijobiy munasabatda bo'lishi muhimdir. Bolalarga tana pozitivligi insonning ichki mazmuniga ham mos bo'lishi kerakligini tushuntirish pozitivlik sifatlarining eng asosiy omili hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. D. A. Po'latova,G. M. Ro'zmatova «G'arb falsafasi tarixi» o'quv qo'llanma «Fan va texnologiya» T.: 2021-yil.
2. Rustamova G, Karimova R. «Falsafa tarixi: Eng yangi davr G'arb falsafasi» o'quv qo'llanma «Universitet» T.:2017-yil.
3. B. M. Umarov «Psixologiya» darslik «Voris-nahriyoti» T.: 2012-yil
4. M. Maxmudova «Muloqot psixologiyasi» o'quv qo'llanma «Turon-iqbol» T.: 2006-yil